

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



MILLIY TURIZM TARMOG'IDA RAQOBAT USTUNLIKLARINI ANIQLASHNING IJTIMOIIY- IQTISODIY AHAMIYATI

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti Xalqaro
turizm menejmenti kafedrası mudiri, PhD

Annotatsiya: Maqolada milliy turizm tarmog'ida raqobat muhiti va uni tashkil etuvchi tarkibiy komponentlar o'zaro aloqadorligining dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Raqobat muhiti komponentlarining milliy turizm tarmog'iga ta'siri ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy turizm tarmog'i, raqobat, raqobat muhiti, raqobat komponentlari, tartibga solish vositalari.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы конкурентной среды и взаимосвязь ее структурных компонентов в национальном туристическом секторе. Также анализируется влияние компонентов конкурентной среды на национальную туристическую отрасль.

Ключевые слова: национальный туристический сектор, конкуренция, конкурентная среда, конкурентные компоненты, инструменты регулирования.

Abstract: The article examines the current issues of the competitive environment and the interrelationship of its structural components in the national tourism sector. It has been also analyzed the impact of the components of the competitive environment on the national tourism sector.

Key words: national tourism sector, competition, competitive environment, competitive components, regulatory tools.

KIRISH

XXI asr global miqyosda raqobat kurashi avj olishi bilan milliy iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki bermoqda. Har bitta davlat geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, tabiiy-mineral xomashyo zahirasi, transport qulayliklari, investitsion jozibadorligi bilan boshqa davlatlardan farq qiladi. Shundan kelib chiqib, muayyan davlat tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli boshqa davlatga aynan mos kelmasligi mumkin.

Global xo'jalik tizimida o'z pozitsiyasini mustahkam egallash uchun davlatlar raqobat ustunliklarini aniqlab olish hamda ularni bosqichma-bosqich takomillashtirib borishga urg'u bermoqda. Davlatlararo raqobatning mavjud bo'lishi ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi. Raqobatchi talabni shakllantirish va sotuvni rag'batlantirish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlarni ro'yobga chiqaradi. Optimal narx belgilashda ham raqobatchilarning o'rni bor. Raqobatchilar hali o'zlashtirilmagan bozor segmentlarining ehtiyojlarini aniqlashi va qanoatlantirish mumkin. Eng muhimi, raqobatchilar faoliyati natijasida ilgari surilayotgan turistik mahsulotni tanitish xarajatlari qisqaradi. Raqobatchilarning reklama kompaniyasiga ajratayotgan moliyaviy resurslari funksional o'xshashliklarga ega boshqa turistik mahsulotlarning ham tanilishini ta'minlab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy turizm tarmog'i rivojlanishining metodologik asoslari xorijlik va mahalliy olimlar ilmiy ishlarida muhim tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan. Jumladan, turizm industriyasining rivojlanishiga bag'ishlangan ilmiy manbalardan eng muhimlaridan biri V.I.Azar tadqiqot ishlarini sanab o'tish mumkin.

So'nggi yillarda chop etilgan mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham diqqatga molik. J.N.Abiyev milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari tadqiq etgan. A.A.Eshtayev tomonidan turizm industriyasi va uni boshqarishning marketing strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi tadqiq etilgan. Biroq bugungacha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda milliy turizm tarmog'ida raqobat muhiti muammolari yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot ishi esa masalaning ayni jihatlari qamrab olgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o'ndan ortiq turistik obyektlarda respondentlar bilan chuqurlashtirilgan intervyular tashkil etildi. Natijada O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning jinsi, yoshi, ma'lumoti, daromadlari kabi demografik ko'rsatkichlar yuzasidan ma'lumotlar to'plandi. Bundan tashqari, turistik faoliyat subyektlari menejerlari o'rtasida fokus-guruhlash metodi asosida tahliliy izlanishlar olib borildi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, turistlarga taqdim etilayotgan asosiy turistik mahsulotlar tarkibi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlash yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlar quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

birinchidan, milliy turizm tarmog'ida talabni shakllantirish va sotuvni rag'batlantirish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlar faol ro'yobga chiqariladi;

ikkinchidan, turistik mahsulotlarga optimal narx belgilash kafolatlari mustahkamlanadi;

uchinchidan, turistik korxonalar tomonidan o'zlashtirilmagan bozor segmentlarining ehtiyojlari qulay makon va sharoitlar kontekstida qanoatlantiriladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim davlatlar o'z hududida yirik monopolistik kompaniyalar faoliyat yuritishidan ba'zida manfaatdor bo'ladi. Havo, temir yo'l, dengiz transportida tashishlarni amalga oshirish, kirish turizmida xizmatlar ko'rsatish, mahalliy zanjir mehmonxonalar va restoranlar tarmog'ini tashkil etish yo'nalishlarida yirik bozor ulushlariga ega kompaniyalarni proteksionizm siyosati orqali davlat idoralari o'z ta'sir vositalari bilan himoyalab turadi. Davlat markaziy idoralarning bunday diskriminatsiya siyosati negizida bir nechta maqsadlar mavjud bo'ladi. Moliyaviy jihatdan ko'lamdor investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish, aholining zaif qatlamlari uchun kvotalangan ish o'rinlarini yaratish, integratsion tuzilmalar tarkibida va global xo'jalik tizimida raqobat bosimiga dosh berish, yuqori texnologiyali xizmat ko'rsatish tarmoqlariga venchur fondlar resurslarini yo'naltirish singari maqsadlarni ko'zlagan holda monopol mavqega ega kompaniyalar davlat tomonidan maxsus imtiyozlar paketi yordamida qo'llab-quvvatlanishi kuzatiladi.

Davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun hech qachon teng sharoitlar mavjud bo'lmagan. Bu esa har bir davlatdan o'zining kuchli tomonlarini qat'iy aniqlab olish hamda ularga tayanishni talab qiladi. Rivojlanishning zaif tarmoqlari subsidiyalar va xayriya fondlari resurslari ko'magida saqlab turiladi. Sanoat ishlab chiqarishi, agrosanoat kompleksi, qurilish, transport, aloqa-kommunikatsiya tizimi, xizmatlar sektori budjet daromadlar bazasining kafolatli manbalari sanaladi. Iqtisodiyotning ushbu tarmoqlarida samaradorlikni izchil oshirib borish, mehnat unumdorligini ta'minlash strategik jihatdan dolzarb ahamiyatga ega. Ayni shu tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlariga solinadigan soliqlar vositasida kelgusida mudofaa, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ilm-fan sohalari manzilli moliyalashtirib boriladi.

Shu o'rinda, "raqobat ustunliklari" kategoriyasiga aniqlik kiritib o'tish taqozo qilinadi. Ushbu tushuncha mohiyati turli manbalarda turlicha talqin qilinadi. Ilmiy asarlar va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish, monografik kuzatishlar natijasida "raqobat ustunliklari" kategoriyasining takomillashgan ta'rifi ishlab chiqildi. Olimlarning bundan avvalgi nazariy-uslubiy yondashuvlarida moddiy tovarlar ishlab chiqarish tarmoqlari misolida tadqiqotlar olib borilgan. Quyida ilk bor milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklariga oid qarashlar keltirib o'tiladi.

Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklari deganda turistik korxonaning tanlangan bozor segmentida faoliyat yurituvchi biznes subyektlari orasida keskin ajralib turuvchi noyob xususiyatlar jamlanmasi tushuniladi. Keltirilgan mualliflik ta'rifini ilmiy-nazariy jihatdan sharhlash asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- turistik korxona raqobat ustunliklari shu korxona faoliyat yuritadigan hamda geografik, iqtisodiy, demografik va psixografik jihatdan segmentlangan bozor doirasida tahlil qilinadi;
- turistik korxona raqobat ustunliklari shu korxonaga tegishli farqli xususiyatlar majmuidan iborat bo'ladi;
- turistik korxona raqobat ustunliklari shu korxona realizatsiya qiluvchi turistik mahsulotlar iste'mol xossalari bilan chambarchas bog'liqlikda amal qiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'rif aniq o'rganiluvchi turistik mahsulot uchun ham, alohida tahlil qilinuvchi turistik destinatsiya uchun ham mos keladi. Turistik mahsulotning raqobat ustunliklari tanlangan bozor segmentida taklif qilinayotgan ayni iste'mol talablarini qanoatlantiruvchi turistik mahsulotlar orasida ajralib turuvchi xususiyatlar majmuidan iborat bo'ladi. Turistik destinatsiya uchun raqobat ustunliklari solishtiriluvchi monogen turistik resurslarga ega destinatsiyalardan farqlanib turuvchi jihatlarida ko'zga tashlanadi.

Raqobat ustunligi to'g'risida ilk nazariy qarashlar va uslubiy yondashuvlar muallifi sifatida Maykl Porter e'tirof etiladi. Ushbu olim tomonidan 1970-1980-yillarda e'lon qilingan ilmiy ishlarning salmoqli qismi mamlakatlar, alohida olingan destinatsiya, turistik korxona va turistik mahsulot raqobat ustunliklarini aniqlashga bag'ishlangan. O'z navbatida, o'rganilayotgan har qanday subyektning raqobat ustunliklari qiyosiy tahlillar nati-



jasida yuzaga chiqadi. O'rganilayotgan subyektga tegishli elementlar (turistik korxona reputatsiyasi, turistik mahsulotning iste'mol xossalari, sifat va narx parametrlari) tanlangan bozor segmentida yirik ulushga egalik qilayotgan lider kompaniya bilan solishtirib boriladi.

Qiyosiy tahlil jarayoni bir nechta tamoyillar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Xususan, turistik korxona ichki imkoniyatlarini obyektiv baholash, bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniya ishbi-larmonlik obro'siga putur yetkazmaslik, birlamchi axborot bazasini to'plashda ishonchli manbalarga murojaat qilish, noxolis xulosalardan chekinish kabi tamoyillar negiziga qurilgan qiyosiy tahlil jarayoni kutilgan maqsadga erishishga olib keladi. Turistik korxona ichki imkoniyatlarini baholashda yetakchi iqtisodchilar, marketologlar, ta'minot menejerlari jamoasi ish yuritgani samarali kechadi. Raqobat kurashiga kirishilayotganda raqobatchi bozor subyektning ishbi-larmonlik obro'siga hurmat bilan munosabatga bo'lish biznes-etiket qoidalari sirasiga kiradi. Turistik korxonalar miqyosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, eng avvalo, axborot bazasi tahlili nati-jasida olingan xulosalar asosida amalga oshiriladi. Ilmiy-ommabop bosma nashrlar, statistik to'plamlar, ilmiy risolalar, monografiyalar, elektron protallarni o'rganish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'l keluvchi ikkilamchi axborot bazasi shakllantiriladi.

Ilmiy asoslangan metodlarni qo'llagan holda tanlangan bozor segmentida monitoring o'tkazish, turistik korxona daromadlarining salmoqli qismini shakllantiruvchi mijozlardan iborat fokus-guruhlarini kuzatish, ixtiyoriy tanlangan turistlar guruhi o'rtasida eksperimentlar uyushtirish, maxsus intervyu va so'rovnomalar tarqatish eva-ziga qimmatli birlamchi axborot bazasi yaratiladi. Turistik korxona menejerlar korpusi uchun har ikkala axborot bazasini inobatga olgan holda operatsion va strategik qarorlar qabul qilish muhim sanaladi.

Bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniyaga tegishli ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va shu asosda tijorat muvaffaqiyatiga erishish usullari benchmarking (benchmarking) tizimida o'z aksini topgan. Turistik korxona tomonidan o'z tijorat faoliyatini yanada yaxshilash maqsadlarini ko'zlab, bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniyaga tegishli ilg'or tajribalarni kuzatish, o'rganish va o'zlashtirish bench-marking usuli deyiladi. Tijorat yangiliklari, takomillashgan marketing vositalari bozorda yirik ulushlarga egalik qilayotgan hamda uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatli ishlab kelayotgan kompaniyalarni monitoring qilish nati-jasida o'zlashtirib olinadi.

Boshqacha aytganda, milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlash va rivojlantirishning sama-rali yo'llaridan biri benchmarking hisoblanadi. Benchmarking usuli qo'llanganda, bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniyaga tegishli ilg'or tajribalar avval umumlashtirib olinadi. So'ngra ushbu tajribalarni tadqiqot olib borgan turistik korxona tijorat faoliyatiga moslashtirish (adaptatsiya) choralari ko'riladi. Turistik korxona iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash uchun etalon sifatida lider kompaniya foydalanib kelayotgan KPI-tizimi (Key Performance Indicators) aynan implementatsiya qilinishi mumkin. Bu, o'z o'rnida, ilg'or tajribalarni qo'llagan holda turistik korxona boshqaruv hisobini takomillashtirish imkonini beradi. Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini aniqlashda benchmarking tizimining o'zni 1-rasmda ifodalangan.

Ta'kidlash joizki, milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini aniqlashda qiyosiy tahlilning benchmarking tizimi qo'llanilishi har tomonlama maqsadga muvofiq. Zotan, ushbu tizim turistik korxona uchun rivojlanishning tanlangan bozor segmentida aprobat-siya (bir necha yillik sinov)dan o'tgan ilg'or yo'lini belgilab olish qulay-ligini yaratib beradi. Turistik korxona o'zi taklif qilayotgan turistik mahsulot konsepsiyasini renovatsiya qilishda benchmarking tizimi qo'l keladi. Odatiy sharoitda turistik mahsulot renovatsiyasi (tarkibiy komponentlarining qisman yangilanishi) yuqori tijorat tavakkalchiligi bilan bog'liq bo'ladi. Turizm bozorida keskin raqobat kurashi avj olgan pallada har qanday moliyaviy yo'qotish qimmatga tushishi tabiiy. Shunday ekan, bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniya avvaldan muvaffaqiyatli qo'llab kelayotgan usullar va vositalarni o'zlasht-irish vaqt tejallishiga sabab bo'ladi, tijorat tavakkalchiligining oldini oladi, eksperiment qilib ko'rish uchun sar-flanuvchi moliyaviy resurslarni tejaydi.

O'z navbatida, benchmarking bir nechta turlarga bo'linadi. Milliy turizm tarmog'ida benchmarking qaysi obyektga yo'naltirilganligiga ko'ra turistik mahsulot benchmarking tizimi, funksional benchmarking, strategik benchmarking tizimi singari turlarga ajratiladi. Turistik mahsulot benchmarking tizimi raqobatlashuvchi hamda ayni bir xil iste'mol talablarini qanoatlantiruvchi turistik mahsulotlar o'rtasida amal qiladi. Aniq bozor segmentiga tegishli bir nechta turistik mahsulotlarning iste'mol xossalari va iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy o'rganiladi. Tur-istik korxona ilgari surayotgan turistik mahsulot tarkibidagi xizmat turlari, ularning narxi, tanitish belgilari bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniyaga tegishli turistik mahsulotning mos ravishdagi parametrlari bilan maqsadli solishtiriladi. Qiyosiy tahlil natijasida bozor segmentida faoliyat yuritayotgan lider kompaniyaga tegishli turistik mahsulot sotuvdagi muvaffaqiyat omillari tizimlashtiriladi. Jumladan, asosiy xizmatlar (tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, ekskursiya) komplektatsiyasining o'ziga xosliklari, narx siyosatining prinsipial afzal-liklari, brend kapitalining qiymati professional baholanadi.

Turistik korxona tomonidan nisbatan ko'p hollarda turistik mahsulot benchmarking tizimi qo'llanadi. Boisi shundaki, turistik korxona daromadi turistik mahsulotning samarali realizatsiyasiga bevosita bog'liq. Tur-istik korxona daromadini barqaror sur'atlarda oshirib borishning muhim shartlaridan biri esa bozor segmen-



tida faoliyat yuritayotgan lider kompaniya tomonidan turistik mahsulotni ishlab chiqish va sotish jarayonida qo'llanilayotgan hamda tijorat amaliyotida real samaralar bergan marketing vositalarini kuzatib borish, faol o'zlashtirish choralari belgilashdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalardan ko'rinib turibdiki, milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini aniqlash mintaqalarning yuqori sur'atda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, milliy turizm tarmog'ining global xizmatlar bozorida aniq pozitsiyani egallashi va raqobat bosimiga bardoshlilik darajasi ham raqobat ustunliklarini aniqlab olishga bog'liq. Milliy turizm tarmog'ining foydalanilmay kelayotgan ichki imkoniyatlari hamda bu sohada barqaror o'sish zahiralari yuzaga chiqarish davlat budjeti daromadlar bazasi ortishiga hissa qo'shadi. Mintaqalarda mavsumiy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan doimiy ish o'rinlari salmog'i oshishi, turistik korxonalar daromadining dinamik sur'atlarda rivojlanishi, shubhasiz, raqobat ustunliklarining faol targ'ib qilinishini taqozo etiladi. Shunday ekan, milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini aniqlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga mas'uliyat bilan yondashish shiddat bilan o'zgarib borayotgan davrning o'tkir talablaridan biri sifatida milliy turizm tarmog'i subyektlari zimmasiga alohida javobgarlik yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 2019 йил 05 январь, ПФ-5611 сон.
2. "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2019 yil 05 yanvar, PF-5611 son.
3. Azar V.I. "Rekreatsion geografiya". Monografiya. Moskva, 2017 y., qayta nashr – 89-124 b.
4. Abiyev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 11-14 b.
5. Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 18-24 b.
6. Amonboyev M., Xalilov S. Turizm industriyasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" elektron jurnali. Toshkent 2019.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

